



XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH SOHASIDA HAMKORLIKNING USTUVOR MASALALARI

Nazarov Alisher Narimanovich

*O'zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, harbiy xavfsizlik va boshqaruv
kafedrası professori s.f.f.d (PhD).,*

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada xavfsizlikni ta'minlash sohasida xalqaro hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari hamda barqaror taraqqiyotning muhim omillari, unga doir konseptual g'oyalar haqidagi fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *xalqaro munosabatlar, xavfsizlik, demokratiya, barqarorlik, hamkorlik.*

Zamonaviy bosqichda xalqaro munosabatlar tizimida ro'y bergan o'zgarishlar, sifat jihatdan BMT faoliyatini va tarkibiy asoslarini yangi dunyoviy tartibotni shakllantirish, davlatlar o'rtasida mutlaqo yangi demokratik muloqotni yo'lga qo'yish ehtiyojlaridan kelib chiqib rivojlantirish muhim ekanligini namoyon etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ushbu global masala xususida quyidagi muhim xulosalar bildirilgan edi: "Biz qat'iy ishonamiz, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'rin tutadi.

O'zbekiston ushbu tashkilotning bosqichma-bosqich isloh etilish tarafdoridir. Biz xavfsizlik kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda kengaytirilishi zarur, deb hisoblaymiz" [1]. Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasining

75-sessiyasidagi nutqida BMTni faoliyatini hamda uning dunyo xalqlari, mamlakatlarini yagona maqsad sari safarbar qiluvchi mavqeini oshirishga qaratilgan o'ta muhim yangi konseptual g'oyalar asoslandi.

Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidagi umumiy xatarlarga qarshi yangicha yondashuvlar asosida va yaqin hamkorlikda ishlashimiz zarur. Birlashgan millatlar tashkilotining muvofiqlashtiruvchi xalqaro tuzilma sifatidagi markaziy o'rnini yanada kuchaytirish lozim.

O'zbekiston jahonning barcha mamlakatlari bilan keng ko'lamli va o'zaro manfaatli sheriklikni, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning institutlari bilan amaliy muloqotni rivojlantirish uchun doimo tayyor" [2]. Alohida ta'kidlash joizki, Davlatimiz rahbarining nutqida hozirgi davrning butun insoniyatini katta tashvishiga solayotgan va tobora ziddiyatli tus olayotgan global muammolarini hal etish borasidagi tom man'nodagi innovatsion siyosiy g'oyalari bayon qilindi.

Ularda BMT faoliyatini globallashtirishning bugungi kundagi barcha tahdidlarini inobatga olgan holda amalga oshirishni yo'lga qo'yish bilan bog'liq ustuvor masalalar o'zining chuqur aksini topgandir. Zero, BMT faoliyatining samaradorligini oshirish muammosi zamonaviy dunyoning eng yetakchi trendiga aylandi.

Bunday vaziyatning vujudga kelishida boshqa sabablar bilan bir qatorda dunyo olimlari ham buni alohida e'tirof qilayotganlaridek, "hozirgi xalqaro vaziyatdagi inqirozli



holatning mohiyatini bipolyar tizimining barham topishi natijasida paydo bo'lgan unipolyar disfunktsiyani bartaraf etilmaganligi holati bilan izohlanmoqdalar. Ushbu muammoning yechilishi o'z navbatida milliy demokratik davlatlarning hamkorligiga asoslangan plyuralistik xalqaro tizimning shakllanishiga olib keladi" [3].

Shu bois ham, unipolyar tartibotga o'tishga qaratilgan intilishlarning insoniyat taraqqiyoti uchun naqadar salbiy oqibatlariga olib kelishini dunyo miqyosida chuqur anglash va xalqaro tizimni demokratlashtirish borasida BMTning sa'y-harakatlarini kuchaytirish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan, Davlatimiz rahbarining Bosh Assambleyaning 75-sessiyasidagi nutqida xalqaro munosabatlarni demokratik tarzda qayta qurishning BMT boshchiligidagi muhim yangi siyosiy yo'llari va manbalari ham asoslab berildi. Bu o'rinda Prezidentimiz tomonidan xalqaro munosabatlarni insonparvarlashtirish, dunyo xalqlarini mushtarak manfaatlar asosida birlashtirishning nihoyatda samarali vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan parlament instituti va parlament diplomatiyasi imkoniyatlaridan BMT rahnamoligida keng foydalanish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb g'oyalar ilgari surildi.

Davlatimiz rahbarining nutqida "Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish va inson huquqlarini ta'minlashda parlamentlar rolini oshirish to'g'risidagi Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklif etildi" [2]. Shu munosabat bilan alohida ta'kidlash joizki, mazkur rezolyutsiyaning qabul qilinishi bilan zamonaviy xalqaro munosabatlarni davrning eng dolzarb ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda demokratlashtirishning yangi va keng qamrovli imkoniyatlari vujudga keladi.

Zero, mamlakatlar parlamentlarining xalqaro maydondagi e'tirofining huquqiy asoslarini mustahkamlanishi bilan parlament diplomatiyasining keng ko'lamli rivojlanishi, xalqaro munosabatlar tizimida legitimlashuv ro'y beradi. Natijada jahondagi mavjud muammolar, ziddiyatli vaziyatlarni tinch, demokratik yo'l bilan hal etishning keng ko'lamdagi zamonaviy shart-sharoitlari kafolatli tarzda shakllantiriladi. Chunki "Parlament diplomatiyasi o'z ichiga bir vaqtning o'zida ham rasmiy va ham xalq diplomatiyasini qamrab oladi. Zero, parlamentlar demokratiyaning yetakchi ustuni sifatida xalq vakilligini ifoda etadilar" [4].

Shu bois ham, milliy parlamentlarning zamonaviy xalqaro munosabatlarning aktori sifatidagi roli beqiyos darajada o'sib boradi. Davlatimiz rahbari tomonidan milliy parlamentlar roli va nufuzini BMTning qarori zaminida oshirish borasida ilgari surilgan konseptual g'oya ayni paytda jahon miqyosida parlamentlar orasida shu paytga qadar amalga oshirib kelinayotgan munosabatlarning yangi sifat bosqichiga ko'tarilishi uchun yetakchi asos bo'lib xizmat qilishi shak-shubhasizdir.

Ma'lumki, "Hozirgi davrda milliy parlamentlar rahbarlarining uchrashuv sammitlari shaklidagi yangi parlament diplomatiyasi jarayonlari amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti, MDHga a'zo mamlakatlar parlamentlari rahbarlarining sammitlari shular jumlasidandir. Global masshtabda esa dunyo parlamentlari rahbarlarining birinchi sammiti 2000 yilda Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan edi. Shuningdek, mazkur formatdagi to'rtinchi sammit ham aynan Nyu-Yorkda 2015-yilda o'tkazildi".



Ta'kidlash joizki, dunyo parlamentlarining rahbarlarining 2020-yildagi birinchi sammitida maxsus deklaratsiya ham qabul qilingan edi. Endilikda mazkur sammitlarda erishilgan kelishuvlarni samarali ravishda amalga oshirilishi uchun ham BMT rahnamoligidagi yangi va xalqaro darajadagi huquqiy asoslar vujudga keltirilmoqda. Chunki parlamentlar rolini oshirish borasidagi BMTning maxsus qarori milliy parlamentlar tomonidan jahon miqyosida erishiladigan kelishuvlarning global darajadagi maqomi yuqori bo'ladi.

Davlatimiz rahbarining BMTning yubiley sessiyasidagi nutqida qirq yildan ko'p bo'lgan davr mobaynida butun insoniyatni tashvishiga solib kelayotgan Afg'onistondagi qarama-qarshiliklarni BMT shafeligida umumiy yechimini hal etish, bu borada BMTning siyosiy va institutsional imkoniyatlarini yanada kengaytirish va afg'on muammosini hal etishda tom ma'nodagi, yangi yuqori natijalarga erishish uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etuvchi konstruktiv g'oyalar va tashabbus ilgari surildi. Sh.M.Mirziyoyev xulosa qilganidek, "Fikrimizcha, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish masalalari Birlashgan millatlar tashkilotining doimiy e'tibor markazida bo'lib qolishi zarur.

Faqat birgalikda va yaqin hamkorlik orqali biz afg'on xalqining ezgu orzu umidlarini ro'yobga chiqarishimiz mumkin. Bu borada "Beqaror va vayronkor vaziyatdan – tinchlik va bunyodkorlik sari" degan tamoyil asosida ishlarni olib borish muhimdir. Shu boisdan Birlashgan millatlar tashkiloti huzurida afg'on xalqining dardu tashvishini tinglaydigan, doimiy faoliyat ko'rsatadigan qo'mita tashkil etish lozim. Ushbu qo'mitaning asosiy vazifasi Afg'onistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'mak berishdan iborat bo'lishi zarur" [2].

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan mazkur siyosiy g'oyalarni amalga oshirilishi bilan avvalambor Afg'onistondagi mavjud muammolarni hal etishning prinsipial jihatdan yangi bo'lgan siyosiy imkoniyatlari BMT darajasida kengayadi. BMTning mintaqaviy va global masalalarni ijobiy hal etish, dunyo mamlakatlari hamkorligini safarbar qila olish salohiyati yuksaladi.

Zero, hozirgi davrda yangi adolatli dunyoviy tartibot, insonparvar xalqaro tizimning vujudga kelishi uchun mintaqaviy hamda global muammolarni hal etilish jarayonlari uzviylikda amalga oshirilishi o'ta muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Barchamiz bir haqiqatni anglab olishimiz zarur: biz bugun faqatgina Afg'onistonning kelajagi uchun emas, balki umumiy xavfsizligimiz, terrorizm, fanatizm va zo'ravonlikdan holi dunyo uchun kurashmoqdamiz. Biz o'tmishdagi xatolarni takrorlamasligimiz kerak. Umumiy mas'uliyatimizni doimo yodda tutishimiz lozim" [5].

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, Davlatimiz rahbari tomonidan BMT Bosh Assambleyasining sessiyasida ilgari surilgan va mohiyatan dunyo xavfsizligini ayni paytda mintaqaviy tinchlikni kafolatli ta'minlashning eng samarali siyosiy asoslari ko'rsatib berilgan g'oyalar xalqaro tizimni insonparvar, adolatli va demokratik bo'lishiga ulkan manba bo'lib xizmat qiladi.

Zero, ularda bugun insoniyat oldida turgan muammolarni yechish, bartaraf qilishning eng optimal yo'llari chuqur asoslab berilgandir.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M.ning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi, 2017-yil 20-sentabr.
2. Mirziyoyev Sh.M.ning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi, 2020-yil 24-sentabr.
3. Лапкин В. Глобальная интерлебзия: от униполярной дисфункции к новому миропорядку // Полис, 2019, №6. – С. 128.
4. Коньков А., Чуков Р. Парламентская дипломатия: Развитие общественно-государственного взаимодействия на мега политическом уровне // Полис, 2020, №1. – С. 66-69.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati. – T. 2018.